

Boshqarmaning vazifa va funksiyalari

1. O‘R FVV tizimida xalqaro hamkorlik sohasi bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirilishini ta‘minlash;

O‘R FVV tizimida umumiy xalqaro faoliyatni muvofiqlashtirish bilan birga me‘yoriy-huquqiy tartibga solish;

Xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha axborot, ma‘lumot va tahliliy materiallarni tayyorlashni ta‘minlash;

O‘zbekiston Respublikasi hududi va tashqarisidagi xalqaro gumanitar loyiha, dastur va operatsiyalarni tayyorlash hamda amalga oshirishda ishtirok etish.

2. Boshqarmaga yuklangan asosiy vazifalariga ko‘ra quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) O‘R FVV tizimidagi xalqaro hamkorlik sohasi bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirilishini ta‘minlash:

O‘R FVVning favqulodda vaziyatlarni ogohlantirish va bartaraf etish sohasida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlikni tashkillashtiradi, shuningdek, shu soha bo‘yicha faoliyatni yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritadi;

tarkibiy tuzilmalarning takliflari asosida O‘R FVVning xalqaro faoliyati rejalari loyihasini, shuningdek, mazkur rejalarga o‘zgartirish yoki qo‘shimchalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

xalqaro shartnomalarni ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, vazirlik faoliyatiga oid xalqaro jihatdagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini o‘rnatilgan tartibda tayyorlaydi va taqdim etadi.

O‘R FVVning xalqaro hamkorlik sohasiga taalluqli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning joriy etilish tajribasi bo‘yicha monitoringni olib boradi.

O‘zining vakolati doirasida davlat sirini saqlash bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

b) O‘R FVV tizimida xalqaro hamkorlik faoliyatini umumiy muvofiqlashtirishni hamda normativ-huquqiy tartibga solishni amalga oshirish sohasida:

xalqaro tashkilotlar, institutlar, chet el davlatlarning tegishli tashkilotlari tomonidan favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasi bo‘yicha taqdim etilgan o‘zaro loyiha grantlarini amalga oshirishda hamkorlikni muvofiqlashtirishni ta‘minlaydi;

O‘R FVVga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida O‘R TIV va O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi elchixonalari bilan hamkorlikni tashkillashtiradi;

xorijiy ixtisoslashtirilgan o‘quv markazlari va tashkilotlari bazasida O‘R FVV mutaxassislarini tayyorlash bo‘yicha ishlarni tashkillashtiradi;

O‘R FVVning turli xalqaro tuzilmalar (MDHning FV bo‘yicha Davlatlararo Kengashi (DK), ShHT, va boshqa) ishlaridagi ishtirokini ta'minlaydi;

O‘R FVV rahbariyatini savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar (qo‘mitalar), shuningdek, tegishli hukumatlararo bitimlarni amalga oshirish doirasida favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi hamkorlik bo‘yicha qo‘shma komissiyalar ishlarida ishtirokini ta'minlaydi;

O‘R FVVning markaziy apparati, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari hamda tegishli tashkilotlari faoliyatidagi pasport-viza ta'minotini tashkillashtiradi; xorijlik mutaxassislarini respublikada tashkil etiladigan ekspertizalarga jalb qilishni, vazirlik mutaxassislarini xorijdagi xalqaro ekspertizalarda ishtirokini tashkillashtiradi;

O‘R FVV taklifiga binoan xalqaro tadbirlarda ishtirok etish uchun O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurayotgan xorijiy delegatsiyalarni tashrifini ta'minlaydi, xorijiy mutaxassislarga O‘R TIV orqali viza yordami ko‘rsatadi;

v) Xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha axborot, tahliliy va ma'lumot materiallarni tayyorlashni ta'minlash:

O‘R FVV faoliyatining yo‘nalishlari bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganishda, umumlashtirishda va joriy etishda ko‘maklashadi;

vazirlikning xalqaro hamkorligi bo‘yicha olib borilayotgan ishlari haqida materiallarni umumlashtiradi, xalqaro hamkorlik to‘g‘risida yig‘ma ma'lumotlar, hisobotlar, va favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish sohasidagi xalqaro shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirish choralari hamda O‘R FVVning xalqaro hamkorlik tadbirlarida ishtiroki to‘g‘risida takliflar tayyorlaydi;

o‘rnatilgan tartibda Prezident Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga hamda vazirlik rahbariyatining topshirig‘iga ko‘ra boshqa yuqori turuvchi idoralarga axborot, tahliliy ma'lumot va boshqa masalalar bo‘yicha boshqarma vakolatiga taalluqli materiallarni taqdim etadi;

vazirlikning xalqaro hamkorlik bo‘yicha rejalari hamda vazirlikning xalqaro tashkilotlar va xalqaro bitimlardagi ishtirokidan kelib chiqadigan majburiyatlari bo‘yicha vazirlik tarkibiy tuzilmalari tomonidan ularning bajarilishi to‘g‘risida vazirlik rahbariyati uchun ma'lumot tayyorlaydi;

ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar taqdim etadi;

g) O‘zbekiston Respublikasi hududi va tashqarisidagi xalqaro gumanitar loyiha, dastur va amaliyotlarni tayyorlash sohasida hamda amalga oshirishda ishtirok etish: xalqaro dasturlar, O‘R FVV vakolatiga kiruvchi yo‘nalishlar bo‘yicha loyihalar ishlab chiqish ishlarini tashkillashtiradi;

transchegaraviy xarakterdagi favqulodda vaziyatlarda shoshilinch hamda gumanitar yordam berish maqsadida qo‘shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro harakatlar mexanizmini ishlab chiqadi;

o‘rnatilgan tartibda xorijiy nohukumat, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan O‘R FVV vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha o‘zaro hamkorlikni olib boradi;

xorijiy davlatlar hududida favqulodda vaziyatlar yuz berganda u yerdan O‘R fuqarolari evakuasiyasini tashkil etishda ishtirok etadi;

favqulodda vaziyatlar yuzasidan O‘R va xorijiy davlatlarda jabrlangan aholiga ijrochi xokimiyatning manfaatdor idoralari bilan birgalikda, shuningdek, BMT (kontrakt asosida) va boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarligidagi gumanitar yordam yuklarini rasmiylashtirish, sotib olish va yetkazish bo‘yicha tadbirlarida ishtirok etadi;

favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish yuzasidan o‘rnatilgan tartibda xorijiy davlatlarga yordam berish bo‘yicha tadbirlarni tashkillashtirishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

Qochqinlar va xorijiy davlatlardan kelgan majburiy ko‘chmanchilar bo‘yicha muammolarni hal qilish masalalarida O‘R FVVnig ishtirok etishi bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi.